BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

UMAROV UMIDJON AKRAM O‘G‘LI

XX ASR INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA XARAKTER VA RAMZ ARXETIPLARI TADQIQI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: [821.111.09-93+821.512.133.09-93]

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of the dissertation abstract for a of Doctor of philosophy (PhD) in Philology

Umarov Umidjon Akram o‘g‘li
XX asr ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotida xarakter va ramz arxetiplari tadqiqi....3

Умаров Умиджон Акрам угли
Исследование архетипов характера и символа в английской и узбекской детской литературе XX века.....21

Umarov Umidjon Akram ogli
A Study of Character and Symbol Archetypes in 20th Century English and Uzbek Children’s Literature.....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of publications.....46

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

UMAROV UMIDJON AKRAM O‘G‘LI

XX ASR INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA XARAKTER VA RAMZ ARXETIPLARI TADQIQI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.3.PhD/Fil3901 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Sobirova Zarnigor Raximovna** filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Adizova Obodon Istamovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Rajabova Ra'no Zaripovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «25» noyabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4117 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «12» noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil «12» noyabr dagi 26-23 - raqamli reyestr bayonnomasi).

O.M. Fayzulloyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.R. Ochilova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Z.Q. Amonova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida XX asrning boshlaridan boshlab arxetiplarning badiiy adabiyotdagi o‘rni, ularning kelib chiqishi, funksionalligi, arxetiplar qo‘llanishining o‘ziga xos xususiyatlari va ularni badiiy jihatdan tahlil qilishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. XX asr ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotida xarakter va ramz arxetiplarining qo‘llanish usullarini o‘rganish, milliy va jahon adabiyotida bola ongiga ta’sir ko‘rsatadigan badiiy obrazlarning shakllanish mexanizmlarini ochib berish, arxetiplarning adabiyotda universallik xususiyatini ifodalashi va ular turli madaniy muhitlarda qanday modifikatsiyaga uchrashini o‘rganish adabiy jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, xarakter va ramz arxetiplarining badiiy tahlili yosh avlodning estetik didini, ijtimoiy ongini, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatini shakllantirishda muhim nazariy manba bo‘lib, ular orqali adabiyotshunoslikda madaniyatlararo qiyosiy tadqiqotlarning yangi istiqbollarini belgilash va ilmiy baholash imkoniyati vujudga keladi.

Dunyo adabiyotshunosligida arxetiplarning badiiy xususiyatlarini ilmiy maqsadlarda o‘rganish hamda ularni tasniflash ancha ilgari boshlangan bo‘lib, bu borada muayyan yutuqlarga erishilgan. Arxetiplarning adabiyot shakli va funksiyasini belgilashdagi, asar va matn mazmunini madaniy hamda psixologik afsonalar asosida shakllantirishdagi, an’anaviy, biologik, diniy va mifologik asosga ega umumlashgan obrazlarni yaratishdagi, xususan, xarakterlarning shakllanishidagi umumiy model sifatidagi, shuningdek, metaforalarga o‘xshash jihatlari va ajdodlar bilan bog‘liq tajriba hamda xotiralarni ifodalash vositasi sifatidagi xususiyatlari alohida e’tiborga loyiqdir. Shu bois arxetiplarga xos badiiy-estetik vazifalarni chog‘ishtirish, ularning genezisini o‘rganish hamda adabiy asarning yaxlit tuzilishini shakllantirishdagi xususiyatlarini aniqlash, xususan, XX asr ingliz va o‘zbek bolalar adabiyoti namunalari misolida tadqiq etish va nazariy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ham globallashuv jarayonida jahon adabiyotiga oid asarlarni o‘rganish, ularni o‘zbek adabiyoti namunalari bilan yonma-yon tahlil qilish, badiiy adabiyotning yuksak san’at namunasi darajasiga olib chiqadigan omillarini ilmiy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda. *“... Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”.* [1] Bugungi kun ilmiy-adabiy izlanishlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri – adabiy asarlarni arxetiplar nazariyasi asosida tahlil qilish hisoblanadi. Ushbu yondashuv asarlar mazmunini yanada kengroq kontekstda anglash, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligini ko‘rsatish imkonini beradi. Hozirgi zamon talablarini inobatga olgan holda, badiiy asarlarni arxetiplar nuqtai nazaridan tahlil qilish bugungi davr yoshlarini badiiy adabiyotga qiziqtirishga, adabiyotni tahlil qila olish, tegishli

[1] Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август.

xulosalar chiqarish qobiliyatini oshirishga, yoshlar tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotida K.Yung, Z.Freyd, N.Fray, J.Kempbell kabi olimlar arxetiplarni mifologik, psixologik va adabiy jihatdan tadqiq qilishgan. [2] M.J.Makkormik XX asrda ingliz adabiyotida uchraydigan Ona obrazi namunalarini arxetip sifatida talqin qilishni asoslab bergan. [3] Yao Dai-yi va Ch.Qian-qianlar qahramon arxetipi, qahramonning sarguzashti arxetipi va soya arxetipini Harri Potter misolida ko‘rib chiqishgan.[4]

J.Harrison, G.Murray va A.Lang kabi olimlari bilan mashhur bo‘lgan Kembrij qiyosiy antropologiya maktabi J.Freyzerdan[5] ilhomlangan. Keyinchalik M.Bodkin, G.Uilson Nayt, R.Greyvs va R.Cheys kabi arxetip tanqidchilari arxetiplarni tadqiq qilishda antropologiya va K.Yung psixologiyasidan foydalanishgan. Sh.Ramasvami XX asr ingliz bolalar adabiyoti namoyandalari bo‘lgan J.R.Tolkien

[2] Jung C.G. Civilization in Transition / translated by R.F.C. Hull. – Princeton, N.J.: Princeton University Press, 1970. – 685 p.; Jung C.G. The Spirit in Man, Art, and Literature. – Princeton, N.J.: Princeton University Press, 1971. – 160 p.; Jung C.G. The Archetypes and the Collective Unconscious / translated by R.F.C. Hull. – Princeton, N.J.: Princeton University press, 1980. – 582 p.; Frye N. Anatomy of Criticism: Four essays. – Princeton, N.J.: Princeton University Press, 1973. – 383 p.; Campbell J. The Hero with a Thousand Faces. – Princeton, N.J.: Princeton University Press, 2004. – 403 p.; Campbell J. Pathways to Bliss: Mythology and Personal Transformation / ed. by D. Kudler. – Novato, CA: New World Library, 2004. – P. 132–133.; Campbell J., Moyers B. The Power of Myth. – New York: Doubleday, 1988. – 231 p.

[3] McCormick M.J. Mothers in the English Novel: From Stereotype to Archetype. – New York: Garland Publishing, 1991. – 205 p.

[4] Yao Dai-yi, Chen Qian-qian. Heroic Archetype in Harry Potter Series // Journal of Literature and Art Studies. – 2020. – Vol. 10, No. 12. – P. 1109–1115. – DOI: 10.17265/2159-5836/2020.12.003.

[5] Frazer S.J. The Golden Bough. – New York: Barnes and Noble, 1959. – P. 396.

va J.K.Rouling asarlaridagi arxetiplarni tahlil qiladi.[6] D.B.Thurmond K.Yungning arxetip nazariyasi XX asr adabiyotiga qay darajada ta’sir qilganini, xususan, soya arxetipini tahlil qilgan. B.Stoker (Irlandiyalik), G.Jeyms (Amerikalik) va R.L.Stivenson (Shotlandiyalik) kabi o‘sha davrning ko‘plab mualliflari o‘z asarlarida soya tushunchasidan foydalanishgan.[7]

O‘zbek tadqiqotchilaridan S.Sotiboldiyeva, T.Eshboyeva, F.Mamtaliyeva, M.Ahunjanova, Z.Botirovalar[8] arxetipga oid tadqiqotlar olib borib, arxetiplarning badiiy xususiyatlarini ochib berishgan. G.Ruzmatova[9] esa arxetip tushunchasini falsafiy jihatdan tahlil qilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining **“**Tilshunoslik, adabiyot, tarjimashunoslik va chet tillarining o‘qitishga integratsiyalashuvi” ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX asr ingliz va o‘zbek bolalar adabiyoti namunalarida xarakter hamda ramz arxetiplarining namoyon bo‘lish xususiyatlari, ularning badiiy-estetik funksiyalari va qo‘llanish mexanizmlarini J. Rouling hamda X.To‘xtaboyev asarlari misolida qiyosiy-tipologik va badiiy talqin asosida aniqlashdan hamda milliy-madaniy va umuminsoniy mazmunini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagicha belgilandi:

jahon adabiyotshunosligida arxetip tushunchasining nazariy-metodologik jihatdan o‘rganilishini tahlil qilish, uning shakllanish manbalari va adabiy tafakkur taraqqiyotidagi transformatsiyasini yoritish hamda arxetiplarning badiiy-nazariy tasnifini ishlab chiqish;

ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotida xarakter arxetiplarining poetik ifodalanish usullarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish, qahramon arxetipining inson xarakteridagi ijobiy va salbiy sifatlarni badiiy ifodalashdagi funksiyalarini ochib berish hamda ularning milliy-madaniy talqinidagi farqlarni asoslash;

ramz arxetiplarining badiiy-semantik xususiyatlarini XX asr ingliz va o‘zbek bolalar adabiyoti namunalari asosida qiyosiy tadqiq etish, xususan, oq va qora ranglarning ramziy ma’no qatlamlaridagi mushtaraklik va milliy o‘ziga xosliklarni, shuningdek, uch va to‘rt sonlari arxetipik ramz sifatida mukammallik g‘oyasini ifodalashidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash;

---

[6] Ramaswamy Sh. Archetypes in Fantasy Fiction: A Study of J.R.R. Tolkien and J.K. Rowling. – India: Publication of Language, 2014. – 256 p.

[7] Thurmond D.B. The Influence of Carl Jung’s Archetype of the Shadow on Early 20th Century Literature. – 2012. – P. 3–6.

[8] Sotiboldiyeva S. Adabiy arxetip // “Ta’lim va tafakkur” jurnali. – 2008. – B. 14–15.; Eshboyeva T. O‘zbek folkloridagi arxetiplar va zamonaviy proza: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023. – 134 b.; Mamtaliyeva F. Odil Yoqubov romanlarida uch do‘st arxetipi // Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences. – 2022. – DOI: 10.5281/zenodo.7185600.; Ahunjanova M. S. qizi, Botirova Z. Exploring the Theory of Archetypes // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2, Special Issue 15. – P. 251–254.

[9] Ruzmatova G. Carl Gustav Jung’s Concept of Human Psyche // Philosophy and Life International Journal. – 2022. – P. 84–98.

J.Rouling va X.To‘xtaboyev asarlarida xarakter va ramz arxetiplarining badiiy funksiyalarini qiyosiy-tipologik tahlil qilish, ularning syujet, obraz va g‘oyaviy-badiiy mazmunni shakllantirishdagi o‘rnini ochib berish hamda milliy va umuminsoniy poetik xususiyatlarni ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida J.Roulingning “Harry Potter and the Sorcerer’s Stone”, “Harry Potter and the Chamber of Secrets”, “Harry Potter and the Prisoner of Azkaban”, “Harry Potter and the Goblet of Fire” asarlari va X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi” asarlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini J.Rouling va X.To‘xtaboyev poetikasi misolida XX asr ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotida xarakter va ramz arxetiplarining qo‘llanilish usullari va badiiy tahlili tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini ochib berishda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, qiyosiy-tipologik, tasniflash, analitik metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xarakter arxetiplarining insondagi jasorat, adolat, sodiqlik, mehnatsevarlik, rahm-shafqat kabi kuchli xususiyatlarni va haddan tashqari o‘ziga ishonch, soddalik kabi kamchiliklarni ochib berishda birlamchi qiymat kasb etishi ilk bor XX asr ingliz va o‘zbek bolalar adabiyoti misolida aniqlangan;

qahramon arxetipining Harri Potter va Hoshimjon obrazlarida ikki xil model asosida shakllanishi: Harrida qahramonlik ichki kuch, jasorat, sodiqlik va adolatparvarlik asosida, Hoshimjonda esa sinov va tajribalar jarayonida mehnatsevarlik, mas’uliyat, qat’iyat va adolat kabi fazilatlarning qaror topishi orqali namoyon bo‘lishi, shuningdek, har ikki obrazda shaxsiy kamolot, o‘z mashhurligi va ahamiyatini anglab yetish kabi insoniy fazilatlar ifodasi bilan umumiylik hosil qilishi ochib berilgan.

ramz arxetiplarining adabiy talqini, ularning ranglar, sonlar, shakllar, tabiat elementlari, obyektlar shaklida tasniflanishi, oq rang arxetipining poklik, tozalik kabi ijobiy va qo‘rquv, dahshat kabi salbiy ma’no aks ettirishi, qora rang arxetipining bilim, kuch, aql va navqironlik kabi ijobiy hamda yovuzlik, qo‘rquv, sirlilik kabi salbiy ma’no aks ettirishi, uch va to‘rt son arxetiplarining mukammallik hamda xilma-xillikdagi birlik timsoli sifatida namoyon bo‘lishi dalillangan;

“Harry Potter” asarida Harri, Ron va Germiona uchlik arxetipi do‘stlik va hamkorlikning ahamiyatini ifodalab kelishi, “Sariq devni minib” asarida esa Hoshimjon, uning do‘sti Akrom va sehrli qalpoqcha uchligida do‘stlik, mehr-muruvvat va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash voqelanishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

arxetiplarning evolutsiyasi va badiiy tabiatiga doir ilmiy qarashlar tizimlashtirilib, ularni xarakter, ramz va vaziyat arxetiplari sifatida tasniflash mezonlari ishlab chiqilgan. Mazkur natijalar arxetip nazariyasiga oid ilmiy tadqiqotlarni boyitishi, badiiy asarlarni arxetipologik jihatdan tahlil qilishda, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlarini o‘qitishda nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

XX asr ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotida xarakter hamda ramz arxetiplarining tutgan o‘rni, badiiy-estetik funksiyasi va milliy o‘ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va xususiy xususiyatlari aniqlangan; ingliz bolalar adabiyotida fantastik va sehrli olam, voqealarning badiiy jihatdan yaxlitligi hamda universalligi, o‘zbek bolalar adabiyotida esa real hayotga yaqinlik, psixologik va ijtimoiy muammolarni yoritish ustuvorligi ko‘rsatilgan. Olingan xulosa va tavsiyalar ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotini arxetipologik hamda qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etishda, mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, shuningdek, adabiyotshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik fanlarini o‘qitishda amaliy manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning ishonchliligi, tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-tipologik tahlil usullari bilan asoslanganligi; ishonchli manbalarga tayanilgan holda chiqarilgani hamda umumlashma xulosalar nufuzli nazariy adabiyotlar asosida dalillanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tadqiqot natijalariga ko‘ra chiqarilgan nazariy xulosalar asosida arxetipning badiiy asarlarni bog‘lab turuvchi, ularni badiiy jihatdan tushunishga yordam beruvchi universal model ekanligi, uning evolyutsiyasi va tasniflanishi, ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotidagi asarlarning umumiy jihatlarini tahlil qilishda arxetiplarning ahamiyati kabi masalalarni o‘rganishga nazariy asos bo‘lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ilmiy-nazariy xulosalari va ularning natijalaridan oliy o‘quv yurtlari, akademik litsey va maktablarda adabiy-nazariy ma’lumotlar berishda, bolalar adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik fanlaridan o‘quv dasturi, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ma’ruza matnlarini tayyorlashda, magistratura bosqichida arxetiplarning badiiy talqini bo‘yicha maxsus kurs hamda seminarlar o‘tishda, magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv-malakaviy va kurs ishlari yozishda, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asr ingliz va o‘zbek bolalar poetikasida aks etgan xarakter va ramz arxetiplarini J.Rouling va X.To‘xtaboyev asarlari misolida qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

xarakter arxetiplarining insondagi jasorat, adolat, sodiqlik, mehnatsevarlik, rahm-shafqat kabi kuchli xususiyatlarni va haddan tashqari o‘ziga ishonch, soddalik kabi kamchiliklarni ochib berishda birlamchi qiymat kasb etishi ilk bor XX asr ingliz va o‘zbek bolalar adabiyoti misolida aniqlanishiga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024 yillarda AQSh elchixonasi hamda Amerika Kengashi bilan hamkorlikda “English Access Microscholarship Program” xorijiy loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 2-apreldagi №887/02-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotga oid ilmiy xulosalar, tavsiyalar va takliflar ushbu loyiha dasturini boyitishga hamda uning ilmiy qiymatini oshirishga xizmat qilgan;

qahramon arxetipining Harri Potter va Hoshimjon obrazlarida ikki xil model asosida shakllanishi: Harrida qahramonlik ichki kuch, jasorat, sodiqlik va adolatparvarlik asosida, Hoshimjonda esa sinov va tajribalar jarayonida mehnatsevarlik, mas'uliyat, qat'iyat va adolat kabi fazilatlarning qaror topishi orqali namoyon bo‘lishi, shuningdek, har ikki obrazda shaxsiy kamolot, o‘z mashhurligi va ahamiyatini anglab yetish kabi insoniy fazilatlar ifodasi bilan umumiylik hosil qilishiga oid xulosa va natijalardan Buxoro davlat universitetida 2024-yilda bajarilgan AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 13-martdagi №01-04/1683-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotida xarakter va ramz arxetiplarining qiyosiy tahliliga doir mulohazalar bilan to‘ldirilgan;

ramz arxetiplarining adabiy talqini, ularning ranglar, sonlar, shakllar, tabiat elementlari, obyektlar shaklida tasniflanishi, oq rang arxetipining poklik, tozalik kabi ijobiy va qo‘rquv, dahshat kabi salbiy ma'no aks ettirishi, qora rang arxetipining bilim, kuch, aql va navqironlik kabi ijobiy hamda yovuzlik, qo‘rquv, sirlilik kabi salbiy ma'no aks ettirishi, uch va to‘rt son arxetiplarining mukammallik hamda xilma-xillikdagi birlik timsoli sifatida namoyon bo‘lishiga oid nazariy xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2024-2025-yillarda bajarilgan “Paratranslator: parallel korpusga asoslangan kontekstologik elektron tarjima lug‘at platformasini yaratish” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 23-maydagi №04/11-6461-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotida ramz arxetiplarining qiyosiy tahlili, tasniflanishi, mushtarakligi, o‘ziga xosligini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy mulohazalar bilan to‘ldirilgan;

“Harry Potter” asarida Harri, Ron va Germiona uchlik arxetipi do‘stlik va hamkorlikning ahamiyatini ifodalab kelishi, “Sariq devni minib” asarida esa Hoshimjon, uning do‘sti Akrom va sehrli qalpoqcha uchligida do‘stlik, mehr-muruvvat va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash voqelanishi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining “Assalom, Buxoro”, “Ilm dunyosi”, “Dolzarb mavzu”, “Hayot maktabi”, “Xalq fikri” teleko‘rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 30-yanvardagi №01-09-53 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, arxetiplarning badiiy xususiyatlari, tasniflanishi va etimologiyasiga doir ilmiy qarashlar ko‘rsatuvlarning ilmiy-ommabopligini ta'minlashga, teletomoshabinlarda o‘zbek tiliga bo‘lgan hurmat va milliy ma'naviyatni yuksaltirishga, vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatni kuchaytirishga turtki bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini

chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan, xorijiy jurnallarda 3 ta, respublika jurnallarida 6 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 133 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jahon adabiyotida arxetiplarning o‘rganilishi va tadriji”** deb nomlangan birinchi bobida arxetip tushunchasi genezisi, evolyutsiyasi va tasnifi, XX asr ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotida arxetiplar tadqiqi masalalarini ochib berish uchun ko‘plab xorijiy va o‘zbek olimlarining tadqiqotlariga murojaat qilingan.

Arxetip insonning jamoaviy ongsizlik qatlamida mavjud bo‘lgan umumiy element bo‘lib, u insonni o‘tmish bilan bog‘laydi hamda kelajak sari ma’naviy-madaniy intilishlarini yo‘naltiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Arxetiplar qadimgi davrda tushuncha sifatida mavjud bo‘lmagan, lekin Aflotunning go‘zallik g‘oyasi kabi mavhum kategoriyalarini arxetip tanqidining boshlanishi deb hisoblash mumkin. Arxetip so‘zining etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u yunoncha “arche” (asl) va “typos” (shakl yoki model) so‘zidan olingan bo‘lib, *“asl shakl”* degan ma’noni anglatadi. Shunday qilib, arxetip inson hayotining umumiy ko‘rinishining ifodasi bo‘lgan o‘ziga xos model, ideal tushuncha yoki ramzdir. Aniq ma’noda, arxetip nusxalarini yaratish mumkin bo‘lgan asl model yoki namunadir. Oksford ingliz lug‘atida arxetip adabiyot, san’at yoki mifologiyada takrorlanuvchi ramz yoki motiv deya ta’riflanadi.[10] Shu o‘rinda arxetip tushunchasini ramz va motiv bilan farqlashimiz zarur.

Har qanday arxetipik motiv bu – motiv, ammo har qanday motiv arxetip bo‘la olmaydi. Shuningdek, har qanday arxetipik ramz bu – ramzdir, ammo har qanday ramz arxetip emas. Motiv yoki ramz quyidagi uch bosqichdan o‘tganda arxetipik darajaga ko‘tariladi: individual qo‘llanish; takrorlanuvchi madaniy ma’no; universal va barqaror model.

Arxetip atamasi K.Yung tomonidan ommalashtirilgan. Uning fikriga ko‘ra, ijodiy jarayon haqiqiy tajriba bo‘lgan dastlabki tasvir yoki ko‘rinishdan boshlanadi; bu ibtidoiy tasvirlar *“collective unconscious”*, *“objective psyche”* va *“racial memory”* deya nomlagan jamoaviy ongsizlikka singdirilgan.[11]

---

[10] Simpson J.A., Weiner E.S.C. (eds.). The Oxford English Dictionary. – 2nd ed. – Oxford: Clarendon Press; New York: Oxford University Press, 1989. – 20 vols.

[11] Ramaswamy Sh. Archetypes in Fantasy Fiction: A Study of J.R.R. Tolkien and J.K. Rowling. – India: Publication of Language, 2014. – 256 p.

Mazkur tadqiqotda arxetiplarning badiiy matndagi namoyon bo‘lish shakllari, funksional xususiyatlari va obrazli ifodalanish usullarini hisobga olgan holda ularni uch asosiy kategoriya: xarakter arxetiplari, ramz arxetiplari hamda vaziyat arxetiplariga ajratib tasniflash taklif etiladi. Mazkur uchlik tasnifda arxetiplarning badiiy matnda namoyon bo‘lishining uch xil funksional ko‘rinishi ajratiladi: xarakter arxetipi – “kim?”, ramz arxetipi – “nima orqali?”, vaziyat arxetipi – “qanday holatda?” degan savollarga javob beradi. Ushbu yondashuv arxetiplarni bir-biridan mutlaq ajratishni emas, balki ularning badiiy matnda o‘zaro aloqador va bir-birini to‘ldiruvchi hodisalar sifatida namoyon bo‘lishini nazarda tutadi. Ayni bir badiiy obraz bir vaqtning o‘zida xarakter arxetipini mujassamlashtirishi, muayyan ramziy ma’no kasb etishi va arxetipik vaziyat doirasida harakat qilishi mumkin. Shu sababli taklif etilayotgan tasnif arxetiplarning obrazlilik, ramziylik va syujetlilik kabi asosiy namoyon bo‘lish shakllarini tizimli ravishda tadqiq etish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

XX asr ingliz bolalar adabiyotiga xos bo‘lgan asosiy xarakter arxetiplari va ularning kitobxonlar uchun ta’siri aksariyat tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Jumladan, M.J.Makkormik ingliz adabiyotida uchraydigan Ona obrazini o‘zining *“Mothers in the English novel: From stereotype to archetype”* nomli ilmiy ishida yoritib berishga harakat qilgan. Y.Dai-yi, Ch.Qian-qianlar qahramon arxetipi, qahramonning sarguzashti arxetipi va soya arxetipini *“Harry Potter”* talqinida ko‘rib chiqishadi. Kitobda tasvirlanganidek, sayohat arxetipi, asosan, uch bosqichga bo‘lingan – jo‘nab ketish, boshlash va qaytib kelish *(departure, initiation, and return).*[12] Sh.Ramasvami XX asr ingliz bolalar adabiyoti namoyondalari bo‘lgan J.R.R.Tolkien va J.K.Rouling asarlaridagi arxetiplarni tahlil qiladi. Shuningdek, uning tadqiqotida sayohat (the quest / journey) arxetipi, uning bosqichlari *“three main stages – Departure, Initiation and Return”* haqida ham ma’lumot topishimiz mumkin. Allen D. Evans[13] arxetip tushunchasini J.K. Roulingning “Harry Potter” asari qahramonlari orqali ko‘rib chiqadi.

Bundan tashqari, o‘zbek adabiyotshunoslari va tadqiqotchilari tomonidan arxetip tushunchasining o‘rganilishi ham aynan arxetipning kelib chiqishi va XX asr adabiyotiga xos bo‘lgan namunalarini tahlil qilishda sezilarli darajada muhim ahamiyat kasb etadi. S.Sotiboldiyeva arxetip terminining Platon tomonidan muomalaga kiritilganini va bu termin keyinchalik K.Yung tomonidan zamonaviy ilmiy talqin etilganini aytib o‘tadi. U adabiy arxetip tushunchasiga ta’rif berib, jumladan, shunday yozadi: *“... adabiy arxetip badiiy ijodning tayanch modeli sifatida, u yoki bu millatning olamni anglash haqidagi xalq donishmandligi va chuqur tafakkuri bilan sug‘orilgan namunalar asosida shakllanadi*” [14] . F.Mamtaliyeva *uch do‘st, uch og‘ayni* arxetipini O.Yoqubovning *“Er boshiga ish*

[12] Yao Dai-yi, Chen Qian-qian. Heroic Archetype in Harry Potter Series // Journal of Literature and Art Studies. – 2020. – Vol. 10, No. 12. – P. 1109–1115. – DOI: 10.17265/2159-5836/2020.12.003.

[13] Evans A. D. Discovering the Archetypes of “Harry Potter” // The West Regional Conference of the International Reading Association. – Portland, Oregon, 2003. – P. 29.

[14] Sotiboldiyeva S. Adabiy arxetip // “Ta’lim va tafakkur” jurnali. – 2008. – B. 14

tushsa…", "Oqqushlar, oppoq qushlar" romanlari misolida tahlil qiladi.[15] Z.Botirova va M.Ahunjanova arxetip tushunchasini adabiy, mifologik, madaniy va psixologik nuqtayi nazardan tahlil qiladilar va ushbu jihatlarni misollar orqali dalillaydilar. Jumladan, arxetipni adabiy termin sifatida o‘rganishda, uning Qahramon arxetipi (the Hero), Ona arxetipi (the Mother), Soya arxetipi (the Shadow) va Dono chol / Donishmand arxetipi (the Wise Old Man) kabi umumiy ko‘rinishlarini tahlil qiladilar.

Ishning II bobi **"Ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotida xarakter arxetiplarini berish usullari"** tarzida nomlangan bo‘lib, ushbu bo‘lim "Harry Potter" va "Sariq devni minib", "Sariq devning o‘limi" asarlarida uchraydigan Xarakter arxetiplarining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini, qahramon arxetipining inson xususiyatlarini ochib berishdagi o‘rnini ilmiy asoslab berishga bag‘ishlangan.

J.Roulingning "Harry Potter" hamda X.To‘xtaboyevning "Sariq devni minib", "Sariq devning o‘limi" asarlaridagi xarakter arxetiplarining qiyosiy tahlili natijasida qahramon, donishmand, oshiq, tadqiqotchi, hazilkash va soya/yovuz arxetiplarining umumiy hamda milliy-badiiy xususiyatlari aniqlangan. Qahramon arxetipi Harri Potter va Hoshimjon obrazlarida qiyinchiliklarni yengib o‘tish, shaxsiy kamolot va tinch-totuv hayotga intilish kabi umumiy jihatlar asosida namoyon bo‘ladi. Bunda Harri Potterning qahramonlik yo‘li fantastik-sehrli muhitda, Hoshimjonning faoliyati esa real hayotga yaqin ijtimoiy-psixologik sharoitda tasvirlanadi.

Donishmand arxetipi Albus Dambldor, Polvontog‘a, Qobilbobo va Salimjon Otajonov obrazlari orqali gavdalanib, qahramonning shakllanishiga ko‘maklashish, unga yo‘l ko‘rsatish, bilim va hayotiy tajriba asosida ma'naviy-intellektual yuksalishini ta'minlash vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, Dambldor obrazi akademik va sehrli bilimlar bilan bog‘liq bo‘lsa, To‘xtaboyev asarlaridagi donishmand obrazlar xalqona donishmandlik, hayotiy tajriba va axloqiy qadriyatlarni ifodalaydi.

Oshiq arxetipi Severus Sneyp va Hoshimjon obrazlarida sadoqat hamda kuchli hissiy kechinmalar orqali ifodalanadi. Sneypning sevgisi yashirin, umrbod davom etuvchi va fidokorona xarakterga ega bo‘lib, fojeali yakun topadi. Hoshimjonning muhabbat kechinmalari esa ochiq yakunlanmagan bo‘lib, uning hissiy holati ishonchsizlik, qo‘rquv va hayajon bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqotchi arxetipi Harri Potter va Hoshimjon obrazlarida bilishga chanqoqlik, haqiqatni anglash, izlanish va tajriba orqali rivojlanish xususiyatlari asosida namoyon bo‘ladi. Biroq Harri Potter jasorat va fantastik izlanishlarga moyil tadqiqotchi sifatida, Hoshimjon esa sho‘xlik, bolalarcha qiziquvchanlik va tanqidiy kuzatuvchanlik bilan ajralib turadi.

Hazilkash arxetipi Fred va Jorj Uizli hamda Hoshimjon obrazlarida hazil, ijodkorlik va erkin fikrlash vositasida yuzaga chiqadi. Ular hazil orqali muammolarni yengillashtirish, turli vaziyatlardan chiqish va atrofdagi hodisalarga

[15] Mamtaliyeva F. Odil Yoqubov romanlarida uch do‘st arxetipi // Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences. – 2022. – DOI: 10.5281/zenodo.7185600.

munosabat bildirish imkoniyatiga ega. Shuningdek, Fred va Jorj Uizli vizual, afsunli, ba'zida dramatik hazil uslubiga ega bo'lsa, Hoshimjon sodda, lekin o'ta keskin kuzatuvchan, so'z o'yini va metaforaga usta sifatida tasvirlanadi.

Soya/yovuz arxetipi Voldemort va Odil Battol misolida ijtimoiy yoki axloqiy muvozanatga tahdid soluvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Ular qahramonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki ramziy darajada bog'langan, ya'ni qarama-qarshilik orqali bosh qahramonning o'sishini rag'batlantiradigan kuchlardir. Yovuzlikni anglab turib tan olishadi. Ularning o'limi jamiyat uchun tozalik ramzi hisoblanadi. Voldemort va Odil Battol obrazlarida qarama-qarshi mazmun ham aks etadi: Voldemort obrazi mistik, g'ayritabiiy va global yovuzlikni, Odil Battol obrazi esa poraxo'rlik, manipulyatsiya, axloqsizlik va kundalik hayotdagi ijtimoiy illatlarni ifodalaydi.

Quyidagi "Harry Potter" va "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" asarlarida uchraydigan Qahramon arxetipining umumiy va o'ziga xos xususiyatlari Harri Potter va Hoshimjon misolida izohlangan:

Har ikkala asarda ham qahramon arxetipi vositasida insoniy fazilatlar – jasorat, adolat, sodiqlik, mehnatsevarlik, rahm-shafqat kabi xislatlar yoritiladi. Ular o'z mashhurligi va ahamiyatini anglab yetishadi.

Harri o'zining qahramonligini bolaligidan boshlab, majburan bo'lsa ham, qabul qiladi. Uning qahramonligi ichki kuch, jasorat va or-nomus bilan bog'liq. Harri ma'naviy jihatdan juda kuchli qahramon bo'lib, asarning boshidan oxirigacha mehribonlik, sodiqlik, adolatparvarlik fazilatlari bilan doim o'zini namoyon qiladi.

Hoshimjon esa qahramon bo'lishni orzu qiladi, ammo avvaliga u buni mo'jizalar orqali, ya'ni mehnat qilmasdan erishmoqchi bo'ladi. Asar davomida esa bu tushunchasi o'zgaradi va u mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish zarurligini tushunadi.

Shu bilan birga Qahramon arxetipining zaif tomonlari ham mavjud bo'lib, bu xususiyatlarni ochib berish uchun Dono chol arxetipi muhim ahamiyatga ega. Dono chol asarlarda sehrgar, shifokor, ruhoniy, o'qituvchi, professor, bobo yoki hokimiyatga ega bo'lgan boshqa shaxs qiyofasida paydo bo'ladi. Inson, goblin yoki hayvon shaklidagi ruh arxetipi har doim tushuncha, tushunish, yaxshi maslahat, qat'iyatlilik, rejalashtirish zarur bo'lgan, qahramon arxetipi yordamga muhtoj bo'lgan vaziyatda paydo bo'ladi. Bu arxetip ushbu ruhiy kamchilik holatini, bo'shliqni to'ldirish uchun mo'ljallangan tarkib hisoblanadi. K.Jung ushbu arxetipni quyidagicha ta'riflaydi: *"The old man always appears when the hero is in a hopeless and desperate situation from which only profound reflection or a lucky idea . . . can extricate him"*[16]

Harri Potterda Dono chol arxetipini Dambldor misolida ko'rishimiz mumkin. U murabbiy vazifasini bajaradi va har doim dono bo'lib, Harriga uni yo'naltirishga yordam beradigan maslahatlar beradi. Dambldor Harrining hayotiga u Dursleylarning zolim uyidan qochishga juda muhtoj bo'lganida kirib keladi. U

[16] Jung C.G. The Archetypes and the Collective Unconscious / translated by R.F.C. Hull. – Princeton, N.J.: Princeton University press, 1980. – P. 217.

Harrini sehrli dunyoga olib boradi va Harri ilojsiz vaziyatlarga tushib qolganida har doim unga yordam beradi.

“Sariq devni minib” asarida ham Qahramon arxetipiga ko‘mak beruvchi va noiloj vaziyatlarda unga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi Dono chol arxetipi qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Ushbu asarda Hoshimjon Xursanali Sharafiddinovich direktorlik qilayotgan Krupskaya nomli maktab internatidan zo‘rg‘a qochib qutulgandan keyin yana olis yo‘lga chiqadi. Yon atrofda biror uy ko‘rinmaydigan atrofiga g‘o‘za ekilgan oxiri yo‘q yo‘llardan yurib boradi. *“Qorong‘i tushib osmonda charaqlab yulduzlar ham ko‘rinib qoldi. Ammo hali aytganimdek yo‘lning oxiridan darak yo‘q.”* Xuddi shunday og‘ir vaziyatda umid uchqunlari paydo bo‘la boshlaydi. Hoshimjon 70 yoshli *“oppoq soqoli ko‘ksiga tushib turgan… yolg‘iz o‘zi zerikib o‘tirgan”* Polvontog‘a bilan tanishib qoladi va ota-boladek bo‘lib olishadi. Polvontog‘a unga agronom sifatida ishga kirishida yordam beradi.

Uzunquloq pir haqidagi asl haqiqatni ochishda esa 134 yoshli Qobilbobo yordam beradi. *“Bundoq qarasam, odamlar xuddi gipnoz qilingandek qotib qolishibdi. Ammo hammalari ham qo‘llarini musht qilib, tishlarini g‘ijirlatib turibdi. Buvijonim bo‘lsa nima qilarini, shuncha yil aldanib kelgani uchun alamini kimdan olarini bilmay, bezgak tutgandek dag‘-dag‘ qaltirayapti.”* [17] Ushbu parchadan Qobilbobo odamlarga, ayniqsa, Hoshimjonga sirni ochishda qanchalik ahamiyat kasb etganini ko‘rishimiz mumkin. Dono chol qaysi yo‘llar maqsadga olib borishini biladi va ularni qahramonga ko‘rsatadi. U yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar haqida ogohlantiradi; ularni samarali hal qilish uchun vositalar bilan ta’minlaydi.

Dissertatsiyaning III bobi **“Ramz arxetiplarining ifodalanishi”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda rang arxetiplarining ijobiy va salbiy ma’no aks ettirishi, son arxetiplarining mukammallik timsoli sifatida namoyon bo‘lishi J.Rouling va X.To‘xtaboyev asarlari misolida tahlil qilingan.

J.K.Roulingning “Harry Potter” asarida oq rangning ko‘p hollarda ijobiy qahramonlar bilan bog‘liq ekanini ko‘rish mumkin. Asar davomida oq rangning aks ettirilishi qahramonlarning ichki dunyosini ochib beradi, ular o‘z maqsadlariga erishishda ijobiy his-tuyg‘ular bilan harakat qiladilar. Dambldor, masalan, oq rangli liboslarda ko‘rinadi, bu uning bilimga bo‘lgan sevgisiga ishora qiladi. Uning porloq va ijobiy tabiatidagi oq rang orqali Dambldor unutilmas va iymonli shaxs sifatida qabul qilinishi mumkin[18]. Bundan tashqari, Albus Dambldorning ismi ham oq rangga ishora qilgani uchun aynan shunday nom tanlangan: *“albus”* lotin tilida *“oq, porloq”* degan ma’noni anglatadi.[19]

Oq rang, odatda, qutqarish, poklik va yorug‘lik rangi bo‘lib, deyarli yaxshi qahramonlar foydalanadigan sehrli afsunlar oq rangga ega. Shuningdek, Harri foydalanadigan Patronus afsuni ham oq rangga ega, bu esa uning baxtli pok xotirasining kuchini va ehtimol onasining sevgisining kuchini ham ko‘rsatadi:

[17] To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – B. 170–171.
[18] https://www.hogwartsprofessor.com/pottermore-j-k-rowling-discusses-alchemical-colors
[19] https://www.mugglenet.com/harry-potter/little-things-harry-potter/name-origins-harry-potter

“Oh – yeah –” said Harry, quickly forcing his thoughts back to that first broom ride. “Expecto patrono – no, patronum – sorry – expecto patronum, expecto patronum”. Something whooshed suddenly out of the end of his wand; it looked like a wisp of silvery gas.[20]

Yuqoridagi misolga qaraydigan bo‘lsak, *“silvery gas”* iborasi orqali Patronus afsuni oq rangga ega degan xulosa kelish mumkin. Bundan tashqari, ushbu afsunning ijobiy xususiyatga ega ekanligi asar qahramoni bo‘lgan Professor Lupin tomonidan aytilgan quyidagi fikrlarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi: *“The Patronus is a kind of positive force, a projection of the very things that the dementor feeds upon — hope, happiness, the desire to survive…”* [21]

X.To‘xtaboyev asarlari qahramoni bo‘lgan Hoshimjonni ta’riflashda ham oq rangdan ijobiy ma’noda foydalangan. Masalan, Hoshimjonga tegishli bo‘lgan oq rangdagi kiyimlar: oq rangli qalpoqcha, oq rangdagi sorochkasi, oq do‘ppi orqali uning ochiq ko‘ngil va pok niyatli ekanligiga ishora qilinayotganini tushunishimiz mumkin. Oq so‘zi *“xalat”, “fartuk”, “choyshab”, “sochiq”, “lenta”* so‘zlari bilan birga ishlatilganda poklik va ozodalikni ifodalaydi. *“Oq”* so‘zi ham *“ko‘ngil”* so‘zi bilan birga kelib ibora shaklida qo‘llaniladi va *“ko‘ngli pok”, “ko‘nglida kiri yo‘q”* ma’nolarini anglatadi.

Odatda tozalikni ifodalovchi oq rang salbiy ma’noni ham anglatishi mumkin. Voldemort bilan bog‘langan oq rang uning haqiqiy tabiatini yashirish uchun o‘ziga xos niqob sifatida anglashiladi. Oq rang endi poklikni anglatmaydi, aksincha, qo‘rquv va dahshatni ham anglatadi. Bundan tashqari, quyidagi parchalarda ham oq rang arxetipining salbiy ma’nolarini tahlil qilamiz:

“Harry and Ron stared at each other, white-faced. Harry didn’t feel hungry anymore. He now felt extremely sick. He tried not to look at a large, slimy something suspended in green liquid on a shelf behind Snape’s desk.”[22] Mazkur parchada oq rang arxetipi *“white-faced”* birikmasi orqali ifodalanib, qo‘rquv va dahshat holatini aks ettiradi. Qahramonlarning yuzining oqarib ketishi ularning duch kelgan vaziyatdan kuchli ta’sirlanganini bildiradi. Shu bilan birga, oq rangning yuz rangi bilan bog‘lanishi hayotiy kuchning susayishi hamda o‘lim va xavf haqidagi arxetipik tasavvurlarni aks ettiradi. Keyingi jumlalarda Harrining ishtahasi yo‘qolishi va o‘zini nihoyatda yomon his qilishi mazkur rangning salbiy-emotsional semantikasini yanada kuchaytiradi.

“Caught in the act!” Ernie yelled, his face stark white, pointing his finger dramatically at Harry.”[23] Mazkur parchada oq rang *“stark white”* birikmasi orqali ifodalanib, kuchli ruhiy hayajon, qo‘rquv va xavotir holatini aks ettiradi. Erni yuzining keskin oqarib ketishi uning voqeaga nisbatan kuchli emotsional munosabatini tashqi ko‘rinishda namoyon etadi. Shu jihatdan, oq rang bu kontekstda insonning xavfli yoki keskin vaziyatga munosabati natijasida yuzaga keladigan ruhiy zo‘riqish va vahima holatini ifodalovchi arxetipik belgi vazifasini bajaradi.

[20] Rowling J. K. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban. – New York: Scholastic Press, – 1999. – P. 238.
[21] Rowling J. K. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban. – New York: Scholastic Press, – 1999. – P. 237.
[22] Rowling J. K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – New York: Scholastic Press, 1999. – P. 79.
[23] Rowling J. K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – New York: Scholastic Press, 1999. – P. 190.

“Sariq devni minib” asarida ham oq rang qo‘rquvni ifodalash uchun ishlatilgan holatlarni ko‘rishimiz mumkin. *“...ko‘cha-kuyda hamshiralarga ko‘zi tushib qolsa ukol qiladi deb, tog‘dan-toqqa qochadi. Tunov kuni maktab hovlisida oq xalat kiygan bufetchini ko‘rib doktor keldi deb derazadan tashlab qochibdi.”*[24] Hoshimjonning kichik singli Donoxonga nisbatan aytilgan ushbu tarifida ham uning doktorlarga nisbatan qo‘rquvi aks ettirilgan. Doktorlar asosan oq rangdagi xalat kiyib yurishi sababli Donoxon hatto oq xalat kiygan bufetchidan ham qo‘rqib qochadi. Demak, *“oq xalat”* tushunchasi bolalar orasida doktorlarga nisbatan qo‘rquvni aks ettiradi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

